XALQ DEPUTATLARI SHOVOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 11-mart VII-22-31-12-177-K/26 Shovot tumani

Shovot tumanida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorining ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Shovot tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shovot tumanida obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmati uchun majburiy to‘lov tariflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorida berilgan topshiriqlarni o‘z muddatlarida bajarish;

Tumanning markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatilarni koʻrsatish;

tasdiqlangan tariflarning belgilangan tartibda qo‘llanilishini ta’minlash;

aholiga va xizmatlardan foydalanuvchi subyektlarga tariflar to‘g‘risida axborot berilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy nashri hisoblangan “Shovot istiqboli” gazetasida e’lon qilinsin.

5. Tuman hokimining axborot xizmati, ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi S.Yo‘ldoshev, tuman hokimligi bosh yuriskonsul’ti Z.Rahimov bilan hamkorlikda;

mazkur qarorni tuman hokimligining https://gov.uz/oz/shovot rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi G.Dosova zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **BABAJANOV JAMOLBEK JUMABAYEVICH**

Xalq deputatlari Shovot tumani
Kengashining
2026-yil 11-martdagi
VII-22-31-12-177-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Shovot tumanida obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmati uchun majburiy toʻlov tariflari

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqami**	**Oʻlchov birligi**	**Tarif miqdori (soʻm)**
Tadbirkorlik subyektlari uchun	Maishiy chiqindilar	m3	58 000
Tadbirkorlik subyektlari uchun	Obodonlashtirish xizmati	m2	700